

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

“Tasdiqlayman”

O‘zDK rektori



2021 yil

“Kelishildi”


**O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**



2021 yil

“Kelishildi”

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi**



2021 yil

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**5150709 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (nay-ko‘shnay, bayan-
akkordeon)**

5150710 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (chang)

**5150711 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (pubob prima, qashqar va
afg‘on rubobi)**

**5150712 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (dutor, dutor bas, dutor
kontrabas)**

5150713 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (zarbli cholg‘ular)

5150714 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (g‘ijjak, g‘ijjak alt)

**5150715 - Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari ((g‘ijjak qobus-bas, g‘ijjak
qobus-kontrabas)**

ta‘lim yo‘nalishlari uchun

Toshkent – 2021 yil

Kirish

5150709 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (nay-ko‘shnay, bayan-akkordeon)

5150710 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (chang)

5150711 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (pubob prima, qashqar va afg‘on rubobi)

5150712 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (dutor, dator bas, dator kontrabas)

5150713 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (zarbli cholg‘ular)

5150714 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (g‘ijjak, g‘ijjak alt)

5150715 - Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari ((g‘ijjak qobus-bas, g‘ijjak qobus-kontrabas)

ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha hujjat topshirgan abituriyentlar musiqiy asar ijrosi borasida ish bajaradilar. Bajiriladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Fanning maqsadi va vazifalari

5150709 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (nay-ko‘shnay, bayan-akkordeon)

5150710 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (chang)

5150711 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (pubob prima, qashqar va afg‘on rubobi)

5150712 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (dutor, dator bas, dator kontrabas)

5150713 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (zarbli cholg‘ular)

5150714 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (g‘ijjak, g‘ijjak alt)

5150715 - Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari ((g‘ijjak qobus-bas, g‘ijjak qobus-kontrabas)

ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql zakovati hisobga olingan tarzda me‘yoriy dasturni o‘zlashtirish ustida ish olib boriladi.

“Xalq cholg‘ularida ijrochilik” fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini o‘zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iboratdir. Alohida e‘tibor professional darajali ijroni mukammallashtirishga, uni yuqori badiiy saviyada ko‘rsatib berishga qaratilishi kerak. Ixtisoslik fani yuzasidan abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo‘lgan, ya‘ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog‘onalari xususan, adabiyot va san‘at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo‘lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

5150709 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (nay-ko‘shnay, bayan-akkordeon)

5150710 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (chang)

5150711 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (pubob prima, qashqar va afg‘on rubobi)

5150712 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (dutor, dator bas, dator kontrabas)
5150713 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (zarbli cholg‘ular)
5150714 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (g‘ijjak, g‘ijjak alt)
5150715 - Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari ((g‘ijjak qobus-bas, g‘ijjak qobus-
kontrabas)

ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida sinfda kirish talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko‘zda tutilgan.

O‘qishga kiruvchi 30 daqiqagacha bo‘lgan vaqt mobaynida ijro dasturi (yirik shakl, o‘zbek xalq musiqasidan namuna, mahoratli asar)ni ijro etib berishi, 10 daqiqagacha vaqt mobaynida kollokvium topshirishi talab etiladi.

“Xalq cholg‘ularida ijrochilik” sohasi bo‘yicha o‘qishga kiruvchi quyidagi bo‘limlardan iborat tanlovli imtihon topshiradi:

1. Cholg‘uda ijro dasturi;
2. Kollokvium.

Cholg‘uda ijro dasturi

5150709 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (nay-ko‘shnay, bayan-akkordeon)
5150710 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (chang)
5150711 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (pubob prima, qashqar va afg‘on
rubobi)

5150712 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (dutor, dator bas, dator kontrabas)
5150713 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (zarbli cholg‘ular)
5150714 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (g‘ijjak, g‘ijjak alt)
5150715 - Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari ((g‘ijjak qobus-bas, g‘ijjak qobus-
kontrabas)

ta‘lim yo‘nalishlariga ariza topshirgan barcha abituriyentlar belgilangan ro‘yxat asosida, yakka tarzda, tayyorlangan dasturni fortepiano jo‘rligida yoddan ijro etishadi.

Abituriyent asarlar nota matnini xatosiz, asarning sur‘atini ko‘rsatilgan tezlikda, ijro shtrixlarini to‘g‘ri qo‘llagan holda, intonatsiya sofligiga amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, pozitsiya va applikatorani to‘g‘ri qo‘llagan holda, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to‘liq ochib bergan holatda ijro etib berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalarining qo‘llanishi, tovush kuchi va uni boshqarish, hamda uning sifati asosiy ahamiyatga ega.

Kollokvium

Kollokvium savol-javoblari:

- a) ijro dasturiga oid savollar: (asarning shakl jihatidan tahlili, muallifi, yaratilgan davri va ijro yo‘nalishi, ijroning badiiy xususiyatlari v.h);
- b) o‘rta maxsus ta‘limning umumiy kursi darajasida elementar musiqa nazariyasi, cholg‘ushunoslik, musiqa adabiyotidan bilimlarni;

v) shakl va garmoniya nuqtai nazaridan kichik hajmdagi - sonatina, romans, kuy va b. asarlarni tahlil qilish qobiliyati kabilarni o‘z ichiga oladi;

g) notadan o‘qish ko‘nikmasi.

Shuningdek, kollokviumda abituriyentning musiqa san‘ati va boshqa san‘at turlaridan, o‘zbek va chet el musiqasida ma‘lum va mashhur asarlar, zamonaviy an‘analar haqidagi bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi.

Ijodiy imtihon abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

1. cholg‘uda ijro dasturi

№	Ijro talablari	To‘liq javob uchun ball
1.	Asar nota matnining to‘g‘riligi	8,0
2.	Tovush sifati va uni boshqarish	8,0
3.	Applikaturaning qo‘llanishi	8,0
4.	Sahna madaniyati	8,0
5.	Artikulyatsiya talablarining bajarilishi	8,0
6.	Musiqiy ifoda vositalarining to‘g‘ri qo‘llanishi	8,0
7.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	8,0
8.	Intonatsiya sofliqi	8,0
9.	Asar xususiyatini ochib berilishi	8,0
10.	Sur‘atning to‘g‘ri tanlanishi	8,0

Ijro dasturi bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – **80,0 ball**

2.Kollokvium

№	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1.	Asarga oid savollar	4,0
2.	Musiqiy cholg‘ular bo‘yicha savollar	4,0
3.	Musiqa adabiyoti bo‘yicha savollar	3,0
4.	Partitura o‘qish ko‘nikmasi	3,0
5.	Asarning shakl nuqtai nazaridan tahlili	3,0
6.	Notadan o‘qish ko‘nikmasi	3,0

Kollokvium bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – **20,0 ball**

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: cholg‘uda ijro dasturi – **80,0 ball** , kollokvium – **20,0 ball**.

“Xalq cholg‘ularida ijrochilik” fani uchun qo‘yiladigan maksimal ball – **100,0 ball**

“GARMONIYA” fanidan

Fanning maqsadi va vazifalari

“Garmoniya” fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning “Garmoniya” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko’nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat.

Abiturientlar oldiga quyidagi vazifalar qo’yiladi:

- klassik garmoniyaning nazariy qonuniyatlarini bilish;
 - nazariy bilimlarni fortepianoda ijro etish orqali namoyon etish;
- garmonik tushunchalarini qo’llash orqali Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyani fortepianoda ijro etish, diatonik yoki xromatik sekvenssiyalarni ijro etish.

Abiturient bilimiga qo’yiladigan talablar

Abiturient “Garmoniya” fanidan o’quv dasturi doirasida to’laqonli bilimga ega bo’lgan holda og’zaki mashqlarni xatosiz bajarganda, garmonik qonuniyatlarni yechimini fortepianoda erkin namoyon etganda, taxlil jarayonida garmonik nazariy va amaliy ko’nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo’yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo’lganida qo’yiladi. Talabning garmonik eshitish qobiliyati, garmonik tuzilmalarni fortepianoda ijro etish mahoragi yorqin namoyon bo’lishi kerak.

Kasbiy (ijodiy) imtixonda abiturient tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

OG’ZAKI SAVOL-JAVOB

1. Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyalarni fortepianoda ijro etish.
2. Diatonik yoki xromatik sekvenssiyalarni ijro etish.

BAHOLASH MEZONI:

OG’ZAKI

№	Savollar mazmuni	To’liq javob uchun ball
1.	Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyani fortepianoda ijro etish.	16
2.	Diatonik yoki xromatik sekvenssiyalarni ijro etish.	10,0
Jami		26,0

Garmoniya fani uchun qo‘yiladigan maksimal ball – 26, 0 ball.

Mazkur ta’lim yo‘nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo‘yiladigan maksimal ball – 126,0 ball.

Ijodiy imtihonni o‘tkazish tartibi

5150709 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (nay-ko‘shnay, bayan-akkordeon)

5150710 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (chang)

5150711 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (pubob prima, qashqar va afg‘on rubobi)

5150712 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (dutor, dutor bas, dutor kontrabas)

5150713 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (zarbli cholg‘ular)

5150714 – Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (g‘ijjak, g‘ijjak alt)

5150715 - Cholg‘u ijrochiligi:: xalq cholg‘ulari (g‘ijjak qobus-bas, g‘ijjak qobus-kontrabas)

ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida oldindan belgilangan muddatlarda Toshkent shahridagi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi binosida ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o‘tkaziladi.

Ijodiy ishni qabul qiladigan komissiya abituriyentdan ijro dasturi bo‘yicha imtihonni qabul qilib oladi, kollokvium o‘tkazadi.

Appelyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtixon natijalari bo'yicha konservatoriya qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.